

UO‘T: 633.5; 633.1; 631.675.2;

**KUZGI BUG‘DOY URUG‘LARIDA BENTONIT GILLARI BILAN QOBIQLASH
MEYORLARINI VA SUG‘ORISH TARTIBLARINING 1000 DONA DON MASSASIGA
TA‘SIRI.**

Tog‘ayeva Xolida Rajabovna
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
tayanch doktorant.

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitda kuzgi bug‘doy navlari 1000 dona don massasiga bentonit gillarining meyorlari va sug‘orish tartiblarini ta‘siri o‘rganilgan va tahlil qilingan. Tahlillarda sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNS ning 75-80-70% sug‘orilgan variantlarda kuzgi bug‘doyning «Shukrona» va «Turon» navlari urug‘larini 40; 50 kg/t bentonit gillari bilan qobiqlab ekish meyori qo‘llanganda, 1000 dona don massasi 42 va 52 g. ni tashkil etgan holda yuqori va sifatli don hosil yetishtirish ta‘minlanadi.

Kalit so‘zlar: Bentonit gili, meyor, 1000 dona, don massa, qobiq, sug‘orish, nav, urug‘, resurs, agrotexnika.

Аннотация: В статье изучено и проанализировано влияние норм бентонитовой глины и режима орошения на массу 1000 зерен сортов озимой пшеницы в легких сероземах Кашкадаринской области. При анализе влажность почвы перед поливом составила 75-80-70% ЧДНС в орошаемых вариантах, семена озимой пшеницы сортов Шукрона и Турон 40; 50 кг/т бентонитовой глины при использовании масса 1000 зерен составляет 42 и 52 г, обеспечит выращивание высококачественных зерновых культур.

Ключевые слова: Бентонитовая глина, стандарт, 1000, зерновая масса, оболочка, орошение, сорт, семена, ресурс, агротехника.

Abstract: The article studied and analyzed the influence of bentonite clay standards and irrigation regime on the weight of 1000 grains of winter wheat varieties in light gray soils of the Kashkadara region. When analyzing, the soil moisture before irrigation was 75-80-70% NH in irrigated options, seeds of winter wheat varieties Shukron and Turon 40; 50 kg/t of bentonite clay when used, the weight of 1000 grains is 42 and 52 g, will ensure the cultivation of high-quality grain crops.

Key words: Bentonite clay, standard, 1000 units, grain mass, shell, irrigation, variety, seeds, resource, agricultural technology.

Hozirgi zamon dehqonchiligida kuzgi bug‘doydan yuqori hosil olishning asosi, tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda, uni yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bilan bir qatorda yangi yaratilayotgan navlarda agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri qo‘llash muxim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, mamlakatimizda yaratilgan kuzgi bug‘doy navlarini turli mintaqa iqlim sharoitlarida yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish orqali sifatli va yuqori hosil yetishtirish pirovardida bentonit gillaridan foydalanish orqali suvni tejash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bentonitning ahamiyati shundaki, uning tarkibidagi montmorillont foiziga qarab, suv bilan kontaktda kirishganda 10 baravar miqdorda shishib kattalashadi va o‘simlikning uzoqroq vaqt suv bilan ta‘minlab turadi[1].

Kuzgi bug‘doyda N₉₀P₉₀K₉₀ (KCl)+bentonit 300 kg/ga qo‘llanilganda, 1000 dona don vazni 44,8 g. bo‘lganligi aniqlangan [2].

Bentonit gillari qo‘shimcha ravishda tuproqni oziqa moddalari bilan boyitadi va qishloq hujaligida ekinlar hosildorligini oshirishga yordam beradi[3].

Ilmiy tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanining S.Rahimov hududidagi Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot-institutining markaziy tajriba maydonida olib borildi. Tajribalarda, kuzgi bug‘doyning «Shukrona» va «Turon» navlarini sug‘orishning Nam to‘plash (Fon), CHDNS 70-75-60% va

CHDNS 75-80-70% meyorlarida, urug'larni bentonit gillarining 30; 40; 50 kg/t meyorlari bilan qobiqlashning donning 1000 dona massasiga ta'siri aniqlandi.

Tadqiqotlarimizda, kuzgi bug'doy navlarida 1000 dona don massasi tajriba variantlari bo'yicha 30 g. dan 52 g. gacha o'zgarib borganligi aniqlandi. (1-jadval).

1-jadval

Kuzgi bug'doy urug'larida bentonit gillari bilan qobiqlash meyorlarini va sug'orish tartiblarining 1000 dona don massasiga ta'siri.

№	Sug'orish tartibi, %	Urug'larni bentonit gillari bilan qobiqlash meyori	Kuzgi bug'doy navlari	1000 dona don massasi, g.
1	Nam to'plash (Fon)	Nazorat (ishlov berilmagan)	«Shukrona»	30
2			«Turon»	40
3		30 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	36
4			«Turon»	42
5		40 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	42
6			«Turon»	42
7		50 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	38
8			«Turon»	42
9	CHDNS 70-75-60%	Nazorat (ishlov berilmagan)	«Shukrona»	38
10			«Turon»	44
11		30 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	40
12			«Turon»	46
13		40 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	42
14			«Turon»	46
15		50 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	42
16			«Turon»	47
17	CHDNS 75-80-70%	Nazorat (ishlov berilmagan)	«Shukrona»	38
18			«Turon»	46
19		30 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	40
20			«Turon»	51
21		40 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	42
22			«Turon»	52
23		50 kg/t Bentonit (Urug' qobiqlash)	«Shukrona»	42
24			«Turon»	52

Tadqiqotlarimizda urug' suvi ichgan (Nam to'plash) fonda 1000 dona don massasi «Shukrona» navida 30 g. dan 42 g. gacha o'zgargan bo'lsa, «Turon» navida 40 g. dan 42 g. gacha qayd etilib, suv ichgan (CHDNS 70-75-60% va CHDNS 75-80-70%) fonlarga nisbatan past natija ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1000 dona don massasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich, kuzgi bug'doyning sug'orish tartibi CHDNSning 75-80-70% bo'lgan fonida, «Shukrona» navida 38 g. dan 42 g. gacha, «Turon» navida esa, 42 g. dan 52 g. gacha ko'p bo'lganligi qayd etildi.

Tadqiqotlarimizda 30; 40; 50 kg/t bentonit gillarini qo'llanilishi, 1000 dona don massasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani ma'lum bo'ldi. Sug'orish tartibi esa bug'doy donlaring to'la bo'lishini taminladi. Faqat urug' suvi ichgan fonda bir maydondagi o'simliklarda oziqaning yetishmasligi hisobiga va zaiflarida don shakllanmay qolishi hamda kichik donlar shakllanishiga olib keldi.

Tajribalarimizda kuzgi bug'doyning «Shukrona» navining nam to'plash (Fon) da urug'larni bentonit gillari bilan qobiqlash meyorlari (nazorat ishlov berilmagan) variantda 1000 dona don massasi 30 g. bo'lgan bo'lsa, 30; 40; 50 kg/t bentonit gillari bilan qobiqlangan variantlarda 36; 38; 42 g. gacha o'zgargan bo'lsa, «Turon» navida esa, 40; 42; 42; 42 g. gacha ko'p bo'lganligini, bentonit gilining ta'sirida hamda nav xususiyati bilan bog'liq holda o'zgarganligini ko'rish mumkin.

Tajribaning sug'orish oldi tuproq namligi CHDNSning 70-75-60% bo'lgan sug'orish tartibida «Shukrona» navida 1000 dona don massasi 38; 40; 42; 42 g. gachani qayd etgan bo'lsa, «Turon» navida ko'rsatkichlar 44; 46; 46; 47 g. gachani tashkil qilgani aniqlandi. Urug' suvi ichgan variantga nisbatan bu sug'orish tartibimizda «Shukrona» navidagi farq 8 dan 4 g. gacha bo'lgan bo'lsa, «Turon» navida esa 4 dan 5 g. gacha 1000 dona don massasi ko'p bo'lganligi aniqlandi.

Tajribaning sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ning 75-80-70% bo'lgan sug'orish tartibida «Shukrona» navida 1000 dona don massasi 38; 40; 42; 42 g. gacha ortib borgan bo'lsa, «Turon» navida 46; 51; 52; 52 g. bo'lgani kuzatildi. Yuqoridagi nam to'plash fonga nisbatan «Shukrona» va «Turon» navlarida 6 g. dan 12 g. gacha 1000 dona don massasi ko'p bo'lganligi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, kuzgi bug'doyda 1000 dona don massasi sug'orish tartibi va bentonit gillarining meyorining ta'sirida ortib borganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, tahlillarimizda kuzgi bug'doy navlari orasida ham ma'lum farqlar yuzaga kelib, «Shukrona» navida 15% yotib qolish kuzatildi va donning 1000 dona don massasiga salbiy ta'siri yanada ortganligi qayd etildi.



1-Rasm. Kuzgi bug'doy navlarining 1000 dona don massasini aniqlash jarayoni.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ning 75-80-70% sug'orish tartibida «Shukrona» va «Turon» navlari urug'larini 40; 50 kg/t bentonit gillari bilan qobiqlab ekish meyori qo'llanganda, 1000 dona don massasi 42 va 52 g. ni tashkil etgan holda, yuqori va sifatli don hosil olish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Мамедов М.И. Баланс элементов питания в серо-коричневой (каштановой) почве под виног.адником в условиях Азербайджана // *Аг.охимия*, 2015, № 6. – Ст. 11-18.
2. Еритсян Сергей Карапитович, Фарсиян Нарине Владимировна. Влияние последействияудобрения и мелиорантов на озимую пшеницу в условиях Аскернского раёна НКР. *Известия Самарской государственной селскохозйственной академии*. Вип. 3/2016. Ст. 28-32.
3. Ковриго В.П. Влияние бентонитовой глины на содержание минерального азота в почве / *Агрохимическая наука достижения и перспективы: тезиси докладов научной конференции, посвященной 50-летию агрономического факультета Кировского СХИ*. – Киров: Кировская ГСХА, 1994. – 83 с.
4. Yodgorov N. G. et al. The Influence of the Bentonite Clay Coated Winter Wheat Seeds on Laboratory Germination // *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*. – 2022. – Т. 2. – С. 42-44.
5. Togaeva K., Yodgorov N. IMPORTANCE AND BIOLOGICAL FEATURES OF COMMON BEAN GROWING IN UZBEKISTAN // *Интернаука*. – 2021. – №. 28-2. – С. 29-30.
6. Жўраев Д. Т., Тоғаева Х. Р., Юсупов Н. Х. IMPORTANCE OF YIELD AND GROWING SEASON WHEN CREATING NEW VARIETIES OF WHEAT // *Life Sciences and Agriculture*. – 2020. – №. 2-3. – С. 69-71.